

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL MUOMALASI VA KREDIT TIZIMI

Izbosarov Boburjon Baxriddinovich

Toshkent moliya instituti dotsenti

Ne'matov Iftixor Ilg'or o'g'li

Toshkent moliya instituti talabasi

Pul muomalasi pulning bajarilgan ishi, ko'rsatilgan xizmatlar, sotib olingan tovarlar haqini to'lash, hisob-kitoblar va to'lovlarni amalga oshirish, nafaqalar berish, qarzlarni qaytarish vositasi sifatida foydalanish jarayonidagi uzluksiz harakati. Pul muomalasi har bir mamlakat pul tizimi miqyosida amalga oshadi. Pul muomalasi naqd va naqd bo'limgan muomalaga bo'linadi. Naqd pul bankdan chiqqach, korxona, tashkilotlar kassasiga va aholi qo'liga o'tadi. Oldi-sotdi va to'lov harakatlari bajarilgach, yana bankka qaytadi. Naqd bo'limgan pul muomalasiga firma, korxona, tashkilotlarning bankdagi hisobida turgan pulning harakati kiradi va bunday muomala chek, kredit kartochkasi, veksel, obligatsiya, sertifikat va boshqa vositalar harakati shaklida olib boriladi. Pul muomalasi jarayonlariga ishtirok etadigan pullar 2 ga bo'linadi;

1-aktiv pullar;

2-passiv pullar.

Mustaqil O'zbekistonimiz rivojlanishi uchun pul muomalasini to'g'ri tashkil qilishimiz shart. Pul siyosati haqida prezidentimizning PQ-4611 8-son 83-modda qarorlariga binoan "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish qo'shimcha chora-tadbirlar" to'g'risidagi. Pul muomalasini to'g'ri boshqarish orqali vujudga keladigan bir qancha muomalani hal qilishimiz mumkin. Jumladan birinchi navbatda

xuxfiyona iqtisodiyotni oldini olishimiz mumkin. Ya’na bundan boshqa davlatlararo global muammolardan biri inflatsiyani ham oldini olsak bo‘ladi.

Kredit, bo‘sh turgan pul mablag‘larini ssuda fondi shaklida to‘plash va ularni pulga muhtoj bo‘lib turgan yuridik va jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlari uchun ma’lum muddatga, foiz to‘lovlari bilan qaytarish shartida qarzga berish munosabatlarini ifodalaydi. Kreditning tijorat, bank, davlat, iste’mol, xalqaro, ipoteka va boshqa shakllari bor.

Tijorat krediti — bir xo‘jalik yurituvchi sub’yekt tomonidan beriladi va odatda, veksel bilan rasmiylashtiriladi.

Bank krediti— jismoniy va yuridik shaxslarga pul shaklida banklar tomonidan beriladi. Bank kreditining forfeyting, faktoring, xaridorga qarz berish kabi ko‘rinishlari bor.

Davlat krediti — davlatning qarz beruvchi va qarz oluvchi sifatida ishtirokini nazarda tutadi. Davlat qarz beruvchi sifatida bank tizimi orqali byudjetdan tarmoq, hudud, korxonalarni kredit ajratib moliyalashtiradi. Qarz oluvchi sifatida aholiga davlat zayomlari, obligatsiyalarini sotish bilan jismoniy yoki yuridik shaxslardan qarz oladi, natijada ichki davlat qarzi, chet davlatlardan olingan kreditlar hisobidan tashqi davlat qarzi paydo bo‘ladi.

Iste’mol krediti— aholiga iste’mol tovarlari, xizmatlarni nasiyaga sotish, uy-joy qurilishi harajatlari uchun, lombardlardagi mulk garovi hisobiga, o‘zaro yordam kassasi qarzlari va boshqa ko‘rinishlarda beriladi.

Xalqaro krediti — muddatli, qaytimli va foiz to‘lash shartlari bilan bir mamlakatdagi kreditor tomonidan ikkinchi mamlakatdagи qarz oluvchiga pul yoki tovar shaklida beriladigan qarz shuningdek, chet el obligatsiyalari, chet el korxonalari aksiyalari va qimmatli qog‘ozlariga fonda olish maqsadlarida kapital qo‘yish.

2017-yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi o‘rta muddatli istiqbolda bank tizimi va pul-kredit siyosatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdi. Valyuta kursi shakllanishida tamomila yangi yondashuvdan foydalaniishi, o‘z navbatida, Markaziy bankning asosiy e’tiborini ichki bozordagi narxlar barqarorligiga qaratish asnosida pul-kredit siyosatini takomillashtirish imkoniyatini beradi. Ayni vaqtda valyuta bozorini liberallashtirish borasidagi islohotlarning muvafaqqiyatli amalga oshirilishi ko‘p jihatdan pul-kredit siyosatini takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini mustahkamlash hamda bank tizimini rivojlantirish choralari samaradorligi bilan chambarchas bog‘liq.

Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Valyuta bozorini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora –tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni e’lon qilinishidan ko‘p o‘tmay O‘zbekiston Respublikasi Prezintining “Pul-kredit siyosatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi va pul-kredit siyosatini yanada rivojlantirish va inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksi tastiqlandi. Hozirgi kunda har bir davlat uchun bankalrni o‘rni juda muhim bo‘lib bormoqda, mamlakatimizda banklar va kredit tizimini yuksak darajalarga olib chiqishimiz kerak. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun birinchi navbatda mamlakatdagi narxlar darajasida muvozanatda bo‘lishi lozim, chunki agar mamlakat iqtisodiyotida inflatsiya daraja yuqori bo‘ladigan bo‘lsa, bu o‘z-o‘zidan kredit foizi ham yuqori bo‘lishiga va shu bilan birgalikda banklar ham kredit berishga yuqori foiz taklif qiladi. Agar inflyatsiyaning past va barqaror darajasi aholi hamda yuridik shaxslar omonatlarini uzoq muddatli investitsiyalarga aylanishi uchun kerakli sharoit yaratadi hamda ichki bozordagi narxlar nomutanosibligini kamaytirib mavjud iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *T.T.Jo‘rayev, X.S.Asatullayev, Z.G.allaberganov. "Iqtisodiyot-2"(darslik) – T; "Nihol print"*
2. *O‘Zme. Brinchi jild.Toshkent,2020-yil*
3. . *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son bilan tasdiqlangan "O‘zbekiston Respublikasi banklar tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi", 1-ilovasi, 9- bandi.*
4. <https://www.xabar.uz/kredit-tizimi-haqida> . 22:40/15.05.2022
5. <https://xs.uz/uzkr/post/pul-muomalasi> 23:00/15.05.2022
6. <https://kun.uz/news/2020/07/22/mamlakatda-banklar-va-kredit-tizimini-to‘g‘ri-tashkil-qilish> 22:34/15.05.2022
7. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-pul -kredit -siyosati> 20:03/15.05.2022